

2020-yil

**2019 - 2020 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING**

**8 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN GEOGRAFIYA FANIDAN
MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN**

IMTIHON JAVOBLARI

GEOGRAFIYA

1-BILET

1. O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni, maydoni va tabiatining o'ziga xos xususiyatlari (iqlim, relyef, tabiat zonalari) haqida gapiring.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli sharqida bo'lib, $45^{\circ} 36'$ shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi Öermiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, $37^{\circ} 11'$ shimoliy kenglikda. Eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida bo'lib, $56^{\circ} 00'$ sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa Farg'ona vodiysining sharqiy qismida, $73^{\circ} 10'$ sharqiy uzunlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa 925 km ga, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km ga teng. O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra O'rta dengiz bo'yidagi Ispaniya, Italiya, Gretsya kabi mamlakatlar bilan taxminan bir geografik kenglikda joylashgan. O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv km bo'lib, kattaligi jihatidan O'rta Osiyoda Qozog'iston va Öurkmanistondan keying o'rinda turadi.

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Yevroсиyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega. Kontinental iqlimning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: osmon ochiq va quyoshli; harorat nihoyatda yuqori, yillik yog'in miqdori kam, aksincha, mumkin bo'lган (potensial) bug'lanish katta; yoz uzoq vaqt davom etib, jazirama issiq, qish esa shu geografik kenglik uchun birmuncha sovuq; yillik va sutkalik haroratning farqi katta.

O'zbekistonning tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosi juda xilma-xil bo'lib, ular tabiatning boshqa elementlariga, xusan, relyefi va iqlimiga bog'liq holda joylashgan. K. Z. Zokirov tavsiya etgan to'rtta: cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarining har biri o'ziga xos iqlim, tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosiga ega.

2. Toshkentdan Jizzaxgacha bo'lган masofa 200 km ga teng bo'lsa, xaritada esa xuddi shu masofa 8 sm ga teng. Ushbu xaritaning masshtabini toping.

$$1\text{km} = 1000\text{m} \quad 200\text{km}=200\ 000\text{m} \quad 200\ 000\text{m} : 8\text{sm} = 25\ 000\text{m}$$

Javob: 1:25 000

3. Dunyoning siyosiy xaritasidan O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh davlatlarni ko'rsating.

Respublikamiz shimol va shimoli g'arbda Qozog'iston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, janubi sharqda Öojikiston bilan, janubi g'arbda Öurkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan (Amudaryo orqali) chegaradosh

2-BILET

1. O'zbekiston Respublikasida dehqonchilikning qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan? O'zbekistonda sholi, uzum, poliz ekinlarini yetishtirishga qaysi hududlar ko'proq ixtisoslashgan?

Javob: Dehqonchilik dalachilik bog'dorchilik va uzumchilikdan iborat. Ekin turlari bo'yicha don ekinlari texnika ekinlari sabzavot, kartoshka va poliz ekilari xo'jaliklariga bo'linadi. O'zbekistonda sug'orib dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlar mamlakat yer boyligining 9.2 %ini tashkil qiladi. Qishloq xojaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98.5% I shu erlarda etishtiriladi. Dehqonchilikda paxtachilik kata o'rin egallaydi. O'zbekistonda asosiy ekin bo'lган paxta qishloq xo'jaligining deyarli barcha sohalari va sanoatning ko'pgina tarmoqlari yuksalishning bosh omilidir. Paxta barcha texnik ekin maydonlarining 97 % ni egallaydi. Ayni paytda donli ekinlar ekish rivojlantirishga katta etibor berilmoqda. Mustaqillika qadar jami ekin maydonining 20 % ga donli ekinlar ekilgan bo'lsa endi bu korsatkich 44 % dan oshdi.

Sholi, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatida, Zarafshon va Farg'ona vodiylarida ko'p ekiladi. Andijon va Farg'ona viloyatlarida uzumchilik rivojlangan. Polizchilik deyarli barcha viloyatlarda rivojlangan. U Toshkent, Samarqand, Andijon kabi yirik shaharlar atrofida katta maydonlarni egallaydi.

2. Tug'ilishning eng past darajasi Toshkent shahrida 14,4 %. O'lim darajasining eng yuqori ko'rsatkich ham Toshkentda -8,1 % kuzatiladi. Aholining tabiiy harakat koeffitsientini toping.

$$\text{Javob: } 14,4 - 8,1 = 6,3\% \quad \text{Aholining tabiiy harakat koeffitsienti } 6,3\%$$

3. O'zbekistonning tabiiy xaritasidan Ustyurt platosi, Turon pasttekisligini vodiysi, Mirzacho'l tekisligi, Qizilqum, Qarnob cho'llarini ko'rsating.

3-BILET

1. *Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni, tabiiy resurslari, sanoati haqida gapiring.*

Qashqadaryo -Maydoni -28.6 kv.km; Aholisi -2.8 mln kishi ; Mamuriy bo'linishi -13 tuman. Qashqadaryo-mamlakat neft-gaz sanoatining tayanchi hisoblanadi.Qarshi cholining janubiy g'arbiy qismida vodorod sulfiddan gaz ajralib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan.Qashqadaryoda 150 ga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.Ularning asosiysi Neft va gaz paxta tozalash binokorlik yengil hamda oziq ovqat sanoatiga iqtisoslashgan.

Qashqadaryo - mamlakat neft va gaz sanoatining tayanchi hisoblanadi. Qarshi cho'lining janubi g'arbiy qismida vodorod sulfatidan gaz ajratib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan. Qashqadaryo viloyatida 150 ga yaqin sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy qismi neft va gaz, paxta tozalash, binokorlik, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. Talimarjon IES, "Muborakgaz" kabi yirik korxonalar nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz iqtisodiyotini faxri hisoblanadi. Viloyatda yangi neft va gaz konlari ishga tushurilishi, «Toshg'uzor-Boysun- Qumqo'rg'on» temiryo'lida qatnov yo'lga qo'yilishi natijasida dashtlarda, adirlarda ham sanoat obyektlari bo'y cho'zmoqda. Jumladan, Dehqonobodda yiliga 200 ming tonna kaliy o'g'it beradigan zavod qad rostamoqda. Yaqin istiqbolda zavod mahsulotining deyarli yarmi eksportga jo,,natila boshlaydi.

2. *Yanvarning o'rtacha harorati -8°C, iyuning o'rtacha harorati +26°C bo'lsa, havo haroratining yillik amplitudasini hisoblang.*

$$-8^{\circ}\text{C} + 26^{\circ}\text{C} = 18^{\circ}\text{C} \quad 18/2 = 9^{\circ}\text{C} \quad \textbf{Javob: } 9^{\circ}\text{C}$$

3. *Xaritadan O'zbekistonda barpo etilgan suv omborlaridan 5 tasini ko'rsating?*

O'zbekistonda sun'iy suv havzalari — suv omborlari ham ko'p. Ularning eng muhimlari **Tuyamo'yin, Chordara, Chorvoq, Kattaqo'rg'on, Tuyabo'g'iz** va boshqalardir.

Ushbu imtihon javoblarini olish uchun telegramdan [@uzimtihon_admin](#) ga yoki telegram orqali [+998 99 394 2820](tel:+998993942820) raqamiga bog'laning.

Imtihon biletini narhi

8 ming so'm

To'lov klik, payme yoki paynet* (tel nomerga emas) orqali

BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI

Telefon qilinganda yoki SMS yozilganda javob bermasligim ehtimoli yuqori

Javoblar 2020-yil savollari asosida tuzilgan. 30ta biletga javoblarni o'z ichiga oladi.
To'lov qilishdan oldin admin bilan bog'laning.